

**“INKLYUZIV TA’LIMDA O’YIN TEXNOLOGIYALARI: IMKONIYATLAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Logopediya yoʻnalishi 2-kurs talabasi

Ibragimova Durdona Dilmurod qizi

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika kafedrasi oʻqituvchisi

Azimova Dilnoza Sherzodvna

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta’limning mohiyati va uning bolalar rivojlanishidagi o’rni yoritilgan. Imkoniyati cheklangan va sog’lom bolalarning birgalikda ta’lim olishi ularning ijtimoiy-hissiy intellektini rivojlantirishi, o’zaro hurmat va teng huquqlilikni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o’yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi roli, motivatsiyani oshirish, muloqot ko’nikmalarini mustahkamlash va ijtimoiy moslashuvga ta’siri kuzatuvlar asosida yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, sog’lom o’quvchilar, ijtimoiy-hissiy intellekt, o’yin texnologiyalari, motivatsiya, muloqot, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация: В данной статье освещается сущность инклюзивного образования и его роль в развитии детей. Анализируется значение совместного обучения детей с ограниченными возможностями и здоровых детей в развитии их социально-эмоционального интеллекта, формировании взаимного уважения и равноправия. Кроме того, на основе наблюдений раскрывается роль игровых технологий в образовательном процессе, их влияние на повышение мотивации, укрепление коммуникативных навыков и социальную адаптацию.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, здоровые учащиеся, социально-эмоциональный интеллект, игровые технологии, мотивация, коммуникация, социальная адаптация.

Abstract: This article highlights the essence of inclusive education and its role in children's development. The significance of co-education for children with disabilities and healthy children in developing their socio-emotional intelligence, and in fostering mutual respect and equality is analyzed. Furthermore, based on observations, the role of game technologies in the educational process, their impact on increasing motivation, strengthening communication skills, and social adaptation is illuminated.

Keywords: Inclusive education, children with disabilities, healthy students, socio-emotional intelligence, game technologies, motivation, communication, social adaptation.

Kirish:

Inklyuziv ta'lim-bu imkoniyati cheklangan bolalar va sog'lom o'quvchilarning bir sinfda birga ta'lim olishini nazarda tutuvchi yondashuv.

U har bir bolaning o'ziga mos ravishda ta'lim olish imkoniyatini yaratishni, ularning jamiyatga to'laqonli integratsiyalashuvini ta'minlashni maqsad qiladi.

Ushbu yondashuv bolalarning teng huquqlilik va o'zaro hurmat kabi qadriyatlarni yoshligidan o'zlashtirishiga yordam beradi.

Bu nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishi, balki barcha o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy intellektini oshirishga ham xizmat qiladi.

"Ijtimoiy-hissiy intellekt"- bolaning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarning tuyg'ularini tushunish va ijtimoiy muhitda to'g'ri munosabat o'rnatish qobiliyatidir.

Misol uchun: Bola o'zining hafa bo'lishi yoki hursanligini anglashi. („Men hafa bo'ldim“, „Men xursandman“) deyishi.

O'zini boshqara olishi: (g'azablanganda urushmaslik, yig'lash o'rniga gapirish.)

Boshqalar hissiyotini anglash: (do'sti hafa bo'lsa yupatish.)

Muloqat qilish va hamkorlik: (o'yinchoqlarni bo'lishish va boshqalar bilan hamkorlik.)

Ijoiy qaror qabul qilish: (do'stiga yordam berish, doim rost so'zlash.)

Yuqoridagi ta'kidlangan barcha hislatlarni bola rivojlanish jarayonlarida va bog'chada o'rganib boradi.

Bolalar bilan muloqot jarayonlari yaxshilanadi va ijtimoiy adaptatsiya yuzaga keladi.

"O'yin texnologiyalari"

1. „Interaktiv o'rganish“: o'yin texnologiyalari o'quv jarayonini individual, qiziqarli qilish vositasi bo'lib, xizmat [qiladi.Bu](https://journalss.org) esa o'quvchilarning faolligini oshiradi.

2. „Motivatsiya va fikrlash“: o'yinlar orqali o'rganish motivatsiyani oshiradi, diqqatni jamlaydi va mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. „Maxsus ehtiyojli bolalar“: maxsus ehtiyojli bolalar uchun o'yinlar o'rganishni osonlashtiradi, ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi va o'zaro muloqotni rag'batlantiradi.

O‘yin texnologiyalari ta’limdagi an’anaviy to‘siqlarni olib tashlab, har bir o‘quvchiga o‘z tempida va o‘z uslubida o‘rganish imkonini [beradi](#).

[Bu](#) ayniqsa, inklyuziv muhitda juda muhim, chunki u turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar uchun shaxsiylashtirishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’limda o‘yin texnologiyalarining maqsadlari:

1. O‘quv, ko‘nikma va qobiliyatlarini samarali rivojlantirish.
2. Ijtimoiy muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish.
3. Emotsional holatni barqarorlashtirish, stressni kamaytirish.
4. Ta’lim jarayoniga faol qatnashishni rag‘batlantirish. (Ayniqsa imkoniyati cheklangan bolalar uchun.
5. Bosqichma -bosqich murakkab mavzularni o‘yin shaklida o‘rgatish orqali tushunishni osonlashtiradi.

Xulosa: O‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalar va sog‘lom tengdoshlari birgalikda o‘qish orqali o‘zaro hurmat, teng huquqlilik va hamkorlikni o‘rganadilar. Biz shuni kuzatdikki, o‘yin texnologiyalaridan foydalanilganda bolalarning faolligi oshadi, ular o‘z hissiyatlarini to‘g‘ri ifodalay oladi, ijtimoiy-hissiy intellekti rivojlanadi hamda jamoadagi muloqot jarayonlari yaxshilanadi.

Shuningdek, o‘yinlar maxsus ehtiyojli bolalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, stressni kamaytiradi va ularning jamiyatga moslashuvini osonlashtiradi. Biz kuzatgan natijalar shuni tasdiqlaydiki, inklyuziv ta’limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish barcha o‘quvchilar uchun samarali ta’lim olish, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy integratsiyaga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov, A. va boshq. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Jo‘rayev, M. Psixologiya va pedagogikada ijtimoiy-hissiy intellekt. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Shadmanova, N. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2022.
4. Salomova, G. Logopediya va maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodlari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.
5. G‘afforova, D. Inklyuziv ta’limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish. // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023.
6. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
7. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
8. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Education Systems. – Paris, 2017.